Testlar

1. 1285-1314 yillarda Fransiya qiroli kim bo`lgan?
 - A) Lyudovik IX
 - B) Filipp IV
 - C) Lyudovik V
 - D) Karl VI
2. Kim o`z qirolligining boshlarida Shampan grafligi, Lion viloyati va shahrini qirol domeniga qo`shib oladi?
 - A) Lyudovik V
 - B) Filipp IV
 - C) Lyudovik IX
 - D) Karl VI
3. Kim Yevropa hukmdorlaridan birinchi bo`lib, katta yer mulklarga egalik qilayotgan cherkovdan soliq talab qiladi?
 - A) Lyudovik IX
 - B) Lyudovik V
 - C) Filipp IV
 - D) Karl VI
4. 1294-1303 yillarda kim Rim papasi bo`lgan?
 - A) Lev IX
 - B) Innokentiy IV
 - C) Urban II
 - D) Bonifatsiy VIII
5. Qaysi Rim papasi Filipp IV dan Flandriyaga qarshi urushni to`xtatishni talab qiladi?
 - A) Innokentiy IV
 - B) Lev IX
 - C) Urban II
 - D) Bonifatsiy VIII
6. O`rta asrlarda general shtatlar qayerda chaqirilgan?
 - A) Angliyada
 - B) Italiyada
 - C) Germaniyada
 - D) Fransiyada
7. Fransiyada general shtatlar dastlab qachon chaqirilgan?
 - A) 1304 yilda
 - B) 1302 yilda
 - C) 1308 yilda
 - D) 1203 yilda
8. Dastlab General shtatlarni qaysi qirol chaqirgan?
 - A) Lyudovik V
 - B) Lyudovik IX
 - C) Filipp IV
 - D) Karl VI
9. Qirolga anafema (la`nat) e`lon qilinishi tayinlangan kun arafasida Italiyaning shimolidagi qaysi shaharda joylashgan papa saroyiga Filipp IV ning bir guruh askarlari bostirib kiradi?
 - A) Avinon
 - B) Venetsiya
 - C) Anani
 - D) Rim

10. Qaysi Rim papasiga fransuzlar yetakchisi ko`z ko`rib quloq eshitmagan narsa – papaga tarsaki tushirishga jazm etadi?
- A) Innokentiy IV
 - B) Lev IX
 - C) Bonifatsiy VIII
 - D) Urban II
11. 1302-1789 yillarda Fransiyadagi oliy tabaqaviy-vakillik muassasasi?
- A) Ta`sis majlisi
 - B) Parlament
 - C) Milliy majlis
 - D) General shtatlar
12. Rim papasi Italiyadan Fransiya janubidagi qaysi shaharga ko`chib o`tishga qaror qiladi?
- A) Parij
 - B) Avinon
 - C) Marsel
 - D) Anani
13. Nechanchi yillar Rim cherkovi tarixida «papalarning Avinon tutquni» nomini oladi?
- A) 1261-1394 yillar
 - B) 1309-1377 yillar
 - C) 1187-1293 yillar
 - D) 1202-1214 yillar
14. Qaysi atama «yalpi toifalar» degan ma`noni anglatadi?
- A) Milliy majlis
 - B) Ta`sis majlisi
 - C) Parlament
 - D) General shtatlar
15. Fransiyaning qaysi qiroli «tamplierlar ishi»ni boshlagan?
- A) Filipp IV
 - B) Karl VI
 - C) Lyudovik IX
 - D) Lyudovik V
16. Qachon tamplierlar ordenining ko`pchilik a`zolari va «buyuk magistri» qamoqqa olinadi?
- A) 1291 yilda
 - B) 1293 yilda
 - C) 1214 yilda
 - D) 1307 yilda
17. Qachon tamplierlar ordenining «buyuk magistri» o`limga hukm etiladi?
- A) 1291 yilda
 - B) 1293 yilda
 - C) 1307 yilda
 - D) 1314 yilda
18. Fransiya qachon toifaviy monarxiya, markazlashgan davlat shakllana boshladi?
- A) XIV asr
 - B) XIII asr
 - C) XVI asr
 - D) XV asr
19. Qaysi organ dastlab soliqlar bilan bog`liq muammolarni yechgan, xolos?
- A) Milliy majlis
 - B) Parlament
 - C) Qirol kengashi
 - D) General shtatlar
20. Nechanchi asrda Fransiya toifaviy monarxiya, ya`ni toifa vakillari yig`iniga suyanadigan,

markazlashgan davlat shakllana boshladi?

- A) XI asrda
- B) XIII asrda
- C) XIV asrda
- D) XV asrda

Testlar

1. Yuz yillik urush qaysi davlatlar o`rtasida bo`lib o`tgan?
 - A) Italiya va Fransiya
 - B) Angliya va Germaniya
 - C) Fransiya va Germaniya
 - D) Angliya va Fransiya
2. Yuz yillik urush qaysi yillarda bo`lib o`tgan?
 - A) 1309-1450 yillarda
 - B) 1361-1494 yillarda
 - C) 1337-1453 yillarda
 - D) 1302-1414 yillarda
3. Fransiyada kapetinglar vorisi deb qaysi oila tan olinadi?
 - A) Valualar
 - B) Gabsburglar
 - C) Merovinglar
 - D) Karolinglar
4. Yuz yillik urush boshlanishiga nima bahona bo`lgan?
 - A) Fransiyaning Angliya yerlariga bostirib kirishi
 - B) Angliyaning Fransiya ichki ishlariga aralashishi
 - C) Angliyaning Fransiyadan soliq talab qilishi
 - D) Angliya qiroli Eduard III ning Fransiya taxtiga da`vosi
5. Yuz yillik urushda qaysi davlatlar Fransiyani qo`llaydi?
 - A) Portugaliya
 - B) Ispaniya va Portugaliya
 - C) Shotlandiya va Kastiliya
 - D) Portugaliya va Shotlandiya
6. Yuz yillik urushda qaysi davlatlar Angliyani qo`llaydi?
 - A) Portugaliya
 - B) Ispaniya va Portugaliya
 - C) Shotlandiya va Kastiliya
 - D) Portugaliya va Shotlandiya
7. Inglizlar qachon Fransiya dengiz flotini yengib, quruqlikda hujumga o`tadilar?
 - A) 1340 yilda
 - B) 1450 yilda
 - C) 1414 yilda
 - D) 1361 yilda
8. 100 yillik urushda Fransiya va Angliya o`rtasidagi dastlabki yirik jang qachon bo`lgan?
 - A) 1340 yilda
 - B) 1346 yilda
 - C) 1450 yilda
 - D) 1361 yilda
9. Fransiya va Angliya o`rtasidagi dastlabki yirik jang?
 - A) Kale jangi
 - B) Bove jangi
 - C) Kresi jangi
 - D) Puate jangi
10. 100 yillik urushda Ingliz qo`shinlari qachon Akvitaniyaga yurish boshlaydi?
 - A) 1346 yilda
 - B) 1340 yilda

- C) 1361 yilda
D) 1347 yilda
11. Qaysi jangda Fransiya qiroli Ioann saxiy va o`g`li Filipp asirga tushadi?
A) Puate jangida
B) Kale jangida
C) Bove jangida
D) Kresi jangida
12. 1356 yilda Fransiya va Angliya o`rtasida qaysi jang bo`lgan?
A) Kresi jangida
B) Kale jangida
C) Bove jangida
D) Puate jangida
13. Qaysi davlatda xo`jayinlar «Sodda Jakning yelkasi keng, u hamma og`irlikni ko`taradi!», deb dehqonlarni kamsitishgan?
A) Angliyada
B) Italiyada
C) Germaniyada
D) Fransiyada
14. «Jakeriya» qo`zg`oloni qachon bo`lgan?
A) 1450 yilda
B) 1340 yilda
C) 1346 yilda
D) 1358 yilda
15. «Jakeriya» qo`zg`oloni Fransiyaning qaysi okrugida bo`lgan?
A) Kresi okrugida
B) Kale okrugida
C) Puate okrugida
D) Bove okrugida
16. «Jakeriya» qo`zg`oloniga kim boshchilik qilgan?
A) Janna d` Ark
B) Gilom Kal
C) Anani Kal
D) Sugeriy Pak
17. «Jakeriya» qo`zg`olonida qatnashgan dehqonlar bayroqlarida nimaning tasviri aks ettirilgan?
A) Oq nilufar
B) Arslon
C) Bir qop jun
D) Burgut

Testlar

1. Angliya Fransiya qachon tinchlik sulhi taklif etgan?
 - A) 1360 yilda
 - B) 1450 yilda
 - C) 1346 yilda
 - D) 1358 yilda
2. Fransiyaning qaysi qiroli harbiy islohotlar o`tkazib, kuchli to`pchilar qo`shini va flot tashkil etadi?
 - A) Filipp IV
 - B) Lyudovik V
 - C) Karl V
 - D) Lyudovik IX
3. Kim Fransiya yagona qo`mondonlik lavozimiga tayinlanib, yirik janglarga kirmasdan, kichik janglar orqali deyarli barcha hududlarni inglizlardan ozod etadi?
 - A) Gilom Kal
 - B) Janna d` Ark
 - C) Karl V
 - D) Dyugeklan
4. Inglizlar qachon Normandiyaga qo`shin tushiradi?
 - A) 1346 yilda
 - B) 1415 yilda
 - C) 1360 yilda
 - D) 1358 yilda
5. 1415 yilda Fransiya va Angliya o`rtasida qaysi jang bo`ladi?
 - A) Kresi jangi
 - B) Azenkur jangi
 - C) Bove jangi
 - D) Puate jangi
6. Inglizlar qaysi gersoglik ko`magida Parijni egallaydi?
 - A) Flandriya
 - B) Burgundiya
 - C) Normandiya
 - D) Akvitanিয়া
7. Qaysi yilgi shartnomaga ko`ra, Angliya qiroli Genrix V ning o`g`li taxtga kelganda, birlashgan Angliya va Fransiya qiroli deb e`lon qilinadi?
 - A) 1415 yilda
 - B) 1358 yilda
 - C) 1420 yilda
 - D) 1346 yilda
8. Fransiya qiroli Karl VII uchun muhim bo`lgan, mamlakat janubiga yo`l ochuvchi qaysi shahar himoyachilari 200 ku davom etgan qamalda ham inglizlarga taslim bo`lishmaydi?
 - A) Orlean
 - B) Reyms
 - C) Tuluza
 - D) Parij
9. Kimni «Orlean qizi» deb ataganlar?
 - A) Yelizavetani
 - B) Dyugeklanni
 - C) Janna d` Arkni

- D) Gilom Kalni
10. Fransiya qirollarining an'anaviy toj kiyadigan shahri?
- A) Tuluza
B) Parij
C) Reyms
D) Orlean
11. 1422-1461 yillarda Fransiya qiroli kim bo'lgan?
- A) Karl V
B) Karl VII
C) Lyudovik IX
D) Lyudovik V
12. Qachon Kompen qal'asi uchun janglarda Janna burgundlar tomonidan asirga olinib, inglizlarga topshiradi?
- A) 1430 yilda
B) 1358 yilda
C) 1420 yilda
D) 1346 yilda
13. 1431 yil 30 mayida Ruan shahrida ...?
- A) Janna d'Ark gulxanda yondiriladi
B) Angliya sulh tuzishga rozilik bildiradi
C) Angliya taslim bo'ladi
D) Fransiyaning taslim bo'lishi haqida shartnoma tuziladi
14. Yuz yillik urush tugagach, Angliya ixtiyorida qaysi port qoladi?
- A) Orlean porti
B) Ruan porti
C) Marsel porti
D) Kale porti
15. 1461-1483 yillarda Fransiya qiroli kim bo'lgan?
- A) Lyudovik XI
B) Karl VII
C) Lyudovik V
D) Karl V
16. Fransiya qiroli Lyudovik XI o'z siyosatini qaysi gersoglarni bo'sundirishdan boshlaydi?
- A) Bretan va Anju
B) Flandriya va Akvitanিয়া
C) Burgundiya va Sans
D) Bordo va Shampan
17. Fransiya qachon yirik feodallar «Jamiyat baxt-saodati ittifoqi»ni tuzadilar?
- A) 1430 yilda
B) 1358 yilda
C) 1420 yilda
D) 1465 yilda
18. «Jamiyat baxt-saodati ittifoqi»ning rahbari kim bo'lgan?
- A) Gilom Kal
B) Janna d'Ark
C) Karl Jasur
D) Dyugeklan
19. Fransiyaning janubidagi Provans viloyati bilan Marsel porti qachon qiroli hukmiga o'tadi?
- A) 1477 yilda
B) 1481 yilda
C) 1465 yilda
D) 1430 yilda

20. Karl VIII Bretan gersogining qizi Annaga uylanishi bilan Fransiyaning markazlashuvi yakunlanadi. Bu qachon yuz bergan?

- A) 1465 yilda
- B) 1477 yilda
- C) 1491 yilda
- D) 1481 yilda

Testlar

1. Anglo-sakslar daniyaliklarga qarshi XI asrning 40-yillarida qo`zg`olon ko`targanida, ularga Fransiya shimolidagi qaysi gersoglik yordamga keladi?
 - A) Bretan
 - B) Normandiya
 - C) Shampan
 - D) Flandriya
2. Normandiya gersogligi qo`shinlari qachon Angliyaga kelib tushadi?
 - A) 1066 yilda
 - B) 1091 yilda
 - C) 1081 yilda
 - D) 1065 yilda
3. Normandiyaning qaysi gersogi qo`shinlari Angliyaga kelib tushadi?
 - A) Genrix
 - B) Vilgelm I
 - C) Dyugeklan
 - D) Karl Jasur
4. 1066 yilda bo`lib o`tgan qaysi jangda Angliya qiroli Garold va uning qo`shini halok bo`ladi?
 - A) Puate jangida
 - B) Jakeriya jangida
 - C) Gastings jangida
 - D) Kale jangida
5. Vilgelm I Angliya yerlarining qancha qismini o`z mulki qilib olgan?
 - A) 1/3 qismini
 - B) 1/4 qismini
 - C) 1/7 qismini
 - D) 1/5 qismini
6. Kim Angliyada ilk marotaba yer-mulk va aholini ro`yxatga olish tadbirini o`tkazadi?
 - A) Garold
 - B) Vilgelm I
 - C) Karl Frank
 - D) Genrix
7. Angliyada aholini ro`yxatga olish tadbiri qanday atalgan?
 - A) O`lim varaqalari
 - B) Dahshatli ro`yxat
 - C) Dahshatli sud kitobi
 - D) Moliyaviy islohot
8. Angliya grafliklarga bo`linib, ularni kim boshqargan?
 - A) Sherif
 - B) Graf
 - C) Gersog
 - D) Markgraf
9. Nechanchi asrda Angliyada xalq og`zaki ijodining sevimli qahramoni Robin Gud siymosi vujudga kelgan?
 - A) XIV asrda
 - B) XIII asrda
 - C) XI asrda
 - D) XV asrda
10. 1154-1189 yillarda Angliya qiroli kim bo`lgan?

- A) Garold
 - B) Karl Frank
 - C) Vilgelm I
 - D) Genrix II
11. Kimning qirolligi davrida Angliyada moliya va harbiy islohot o`tkaziladi?
- A) Garold
 - B) Karl Frank
 - C) Vilgelm I
 - D) Genrix II
12. Angliyada nima qirolga muntazam yollanma qo`shin tuzish imkonini bergan?
- A) Tuz puli
 - B) Qalqon puli
 - C) Majburiy harbiy xizmat
 - D) Dahshatli sud kitobi
13. 1199-1216 yillarda Angliya qirolligi kim bo`lgan?
- A) Ioann
 - B) Garold
 - C) Genrix II
 - D) Karl Frank
14. Angliyada baronlar, ritsarlar va shaharliklar ishtirokida qachon isyon ko`tarilgan?
- A) 1091 yilda
 - B) 1065 yilda
 - C) 1215 yilda
 - D) 1081 yilda
15. Angliyada «Buyuk ozodlik xartiyasi» qachon qabul qilingan?
- A) 1081 yilda
 - B) 1091 yilda
 - C) 1215 yilda
 - D) 1065 yilda
16. Angliyada «Buyuk ozodlik xartiyasi» qaysi qirol davrida qabul qilingan?
- A) Garold
 - B) Genrix II
 - C) Ioann Yersiz
 - D) Karl Frank
17. «Buyuk ozodlik xartiyasi»ning asosiy moddalari kimlarning manfaatini ifodalagan?
- A) Yirik feodallar va shaharlarning
 - B) Dehqonlarning
 - C) Baronlar va ruhoniylarning
 - D) Qirolning
18. «Buyuk ozodlik xartiyasi» necha moddadan iborat bo`lgan?
- A) 43 moddadan
 - B) 63 moddadan
 - C) 45 moddadan
 - D) 30 moddadan
19. Angliyada birinchi parlament qachon chaqirilgan?
- A) 1265 yilda
 - B) 1091 yilda
 - C) 1215 yilda
 - D) 1081 yilda
20. Parlament so`zi fransuz tilidan olingan bo`lib, qanday ma`noni bildiradi?
- A) Tasdiqlash
 - B) Gapirmoq

- C) O`rnatish
D) O`qimoq
21. Angliya parlamentining yuqori palatasi qanday ataladi?
A) Senat
B) Lordlar palatasi
C) Qirol palatasi
D) Umum palata
22. Angliya parlamentining quyi palatasi qanday ataladi?
A) Umum palata
B) Senat
C) Lordlar palatasi
D) Qirol palatasi
23. Angliya parlamenti nechanchi asrda quyi va yuqori palataga bo`lingan?
A) XIII asrda
B) XII asrda
C) XV asrda
D) XIV asrda
24. Angliyada har bir graflikdan parlamentga necha ritsar yuborilgan?
A) 6 ta
B) 3 ta
C) 5 ta
D) 2 ta
25. Angliyada har bir yirik shaharlardan parlamentga necha vakil yuborilgan?
A) 2 ta
B) 6 ta
C) 3 ta
D) 4 ta
26. Vestminster saroyi qayerda joylashgan?
A) Germaniyada
B) Italiyada
C) Fransiyada
D) Angliyada

Testlar

1. 1377-1399 yillarda kim Angliya qiroli bo`lgan?
A) Garold
B) Richard II
C) Genrix II
D) Ioann
2. Qachon Angliyada qo`shimcha jon solig`i joriy etilgan?
A) 1377 yilda
B) 1265 yilda
C) 1215 yilda
D) 1081 yilda
3. Qaysi qiroldavrida Angliyada qo`shimcha jon solig`i joriy etilgan?
A) Ioann
B) Garold
C) Richard II
D) Genrix II
4. Qachon Angliyada jon boshi solig`i 3 barobar oshirilgan?
A) 1380 yilda
B) 1265 yilda
C) 1377 yilda
D) 1081 yilda
5. «Odam Ato yer haydab, Momo Havo charx yigirganda kim dvoryan bo`lgan!» deb kim o`z va`zlarida aytgan?
A) Uot Tayler
B) Genrix VII
C) Jon Boll
D) Tom Mann
6. Angliyada Uot Tayler qo`zg`oloni qachon bo`lib o`tgan?
A) 1381 yilda
B) 1081 yilda
C) 1380 yilda
D) 1377 yilda
7. Uot Tayler kim bo`lgan?
A) Savdogar
B) Dvoryan
C) Tunukasoz
D) Dehqon
8. Uot Tayler qo`zg`olonida qaysi grafliklardan dehqonlar qatnashgan?
A) Kent va Kenterberi
B) Kenterberi va Uesseks
C) Uesseks va London
D) Esseks va Kent
9. «Mayl End» dasturi qayerda qabul qilingan?
A) Italiyada
B) Fransiyada
C) Angliyada
D) Germaniyada
10. Uot Tayler boshchiligidagi qo`zg`olonchilar bilan qirolning yangi uchrashuvi qayerda bo`lgan?
A) Kenterberida

- B) Uesseksda
 - C) Esseksda
 - D) Shmitfildda
11. Angliyada «Oq va Qizil gullar» urushi qachon bo`lgan?
- A) 1455-1485 yillarda
 - B) 1465-1485 yillarda
 - C) 1455-1467 yillarda
 - D) 1458-1488 yillarda
12. «Oq va Qizil gullar» urushida Angliya aholisining qancha qismi qirilib bitgan?
- A) 1/2 qismi
 - B) 1/5 qismi
 - C) 1/4 qismi
 - D) 1/3 qismi
13. Angliyada «Oq va Qizil gullar» urushida kim g`olib chiqqan?
- A) Genrix VII
 - B) Genrix II
 - C) Richard II
 - D) Ioann
14. Angliyada Tyudorlar sulolasiga kim asos soladi?
- A) Genrix II
 - B) GenrixVII
 - C) Richard II
 - D) Ioann
15. Angliyada GenrixVII Tyudor qaysi yillari hukmronlik qilgan?
- A) 1485-1509 yillarda
 - B) 1455-1485 yillarda
 - C) 1485-1507 yillarda
 - D) 1465-1485 yillarda
16. «Oq va Qizil gullar» urushidagi 1485 yilgi halqiluvchi jang qaysi?
- A) Puate jangi
 - B) Kale jangi
 - C) Bosvort jangi
 - D) Lankasterlar jangi
17. Angliya toj-u taxti uchun kurashda kimlarning bayrog`iga qizil atirgul rasmi solingan?
- A) Tyudorlar
 - B) Luksemburglar
 - C) Lankasterlar
 - D) Yorklar
18. Angliya toj-u taxti uchun kurashda kimlarning bayrog`iga oq atirgul rasmi solingan?
- A) Lyuksemburglar
 - B) Lankasterlar
 - C) Tyudorlar
 - D) Yorklar

Testlar

1. G`arbiy Yevropa madaniyati nechanchi asrlardan yuksala boshlaydi?
 - A) XI-XII asrlardan
 - B) XIII-XIV asrlardan
 - C) XII-XIII asrlardan
 - D) X-XI asrlardan
2. Nechanchi asrdan Yevropaning yirik shaharlarida dastlabki oliy maktablar – universitetlar ochila boshlaydi?
 - A) XIII asrdan
 - B) XI asrdan
 - C) XII asrdan
 - D) X asrdan
3. Yevropaning qaysi shaharlarida ilk universitetlar tashkil topgan?
 - A) London va Praga
 - B) Kembrij va Parij
 - C) Bolonya va Oksford
 - D) Bolonya va Parij
4. Qaysi universitetning asoschisi qirol xonadoni ruhoniysi Rober de Sorbon bo`lgan?
 - A) Parij
 - B) Praga
 - C) Bolonya
 - D) Kembrij
5. Nechanchi asrlarda Yevropaning deyarli barcha mamlakatlari o`z universitetlariga ega bo`lishadi?
 - A) X-XI asrlardan
 - B) XI-XII asrlardan
 - C) XIII-XIV asrlardan
 - D) XII-XIII asrlardan
6. Qaysi universitetga Fridrix II asos solgan?
 - A) Parij
 - B) Praga
 - C) Kembrij
 - D) Neapol
7. Italiyadagi dastlabki universitetlar?
 - A) Praga, Neapol
 - B) Neapol, Bolonya
 - C) Krakov, Sevilya
 - D) Kyoln, Bolonya
8. Ispaniyadagi dastlabki universitetlar?
 - A) Sevilya, Valensiya
 - B) Praga, Neapol
 - C) Neapol, Bolonya
 - D) Kyoln, Bolonya
9. Fransiyadagi dastlabki universitetlar?
 - A) Kyoln, Bolonya
 - B) Parij, Tuluza
 - C) Sevilya, Valensiya
 - D) Neapol, Bolonya
10. Angliyadagi dastlabki universitetlar?

- A) Neapol, Bolonya
 - B) Parij, Tuluza
 - C) Sevilya, Valensiya
 - D) Oksford, Kembrij
11. Qaysi davlatlarda kollegiyalar yangi o`quv muassasalari – kollejlarga asos bo`ladi?
- A) Italiya va Ispaniya
 - B) Germaniya va Italiya
 - C) Fransiya va Polsha
 - D) Angliya va Fransiya
12. Universitet tepasida hokimiyat tomonidan tayinlangan kim turgan?
- A) Yepiskop
 - B) Rektor
 - C) Dekan
 - D) Kansler
13. San`at lotinchada nima deyilgan?
- A) «artes»
 - B) «magist»
 - C) «pergaments»
 - D) «teatr»
14. Maxsus ishlov berilgan buzoq terisi?
- A) Movut
 - B) Pergament
 - C) Qog`oz
 - D) Papirus
15. Kitoblarni nechanchi asrdan rohiblar emas, shaharlarda maxsus ochilgan ustaxonalarda hunarmandlar tayyorlashgan?
- A) XI asrdan
 - B) XIV asrdan
 - C) X asrdan
 - D) XII asrdan
16. Nechanchi asrdan qog`ozdan keng foydalanish kitob ishlab chiqarishni yanada ko`paytirdi?
- A) XIV asrdan
 - B) XI asrdan
 - C) X asrdan
 - D) XII asrdan
17. Dastlab qog`oz Yevropaga qaysi shahardan keltirilgan?
- A) Buxoro
 - B) Bag`dod
 - C) Samarqand
 - D) Damashq
18. Qayerda Yevropadagi dastlabki qog`oz ishlab chiqarish ustaxonalari qurilgan?
- A) Angliyada
 - B) Fransiyada
 - C) Germaniyada
 - D) Italiyada
19. 1445 yilda kim kitob bosish dastgohini kashf qiladi?
- A) Kolyuchcho Salyutati
 - B) Jovanni Bokachcho
 - C) Rojer Bekon
 - D) Iogann Gutenberg
20. Rojer Bekon qaysi universitet professori bo`lgan?
- A) Neapol

B) Oksford

C) Parij

D) Kyoln

21. Kim fandagi yutuqlarga faqat ilmiy kuzatishlar va tajribalar yo`li bilan erishish mumkinligini isbotlagan?

A) Rojer Bekon

B) Koyuchcho Salutati

C) Jovanni Bokachcho

D) Iogann Gutenberg

22. O`rta asrlarda qaysi fanlar yuksak rivojlangan?

A) Tibbiyot va geografiya

B) Astrologiya va alximiya

C) Geografiya va matematika

D) Matematika va alximiya

Testlar

1. Qaysi uslubda ibodatxonalar qalin devorli, baland minorali va tor derazali salobatli uzun qilib quriladi?
 - A) Roman uslubi
 - B) Zamonaviy uslub
 - C) An'anaviy uslub
 - D) Gotik uslub
2. XI asrga oid Germaniyadagi qaysi monastir roman uslubining yorqin namunasi hisoblanadi?
 - A) Laax monastiri
 - B) Shartr ibodatxonasi
 - C) Bibi Maryam ibodatxonasi
 - D) Korvey monastiri
3. Bibi Maryam ibodatxonasi qayerda joylashgan?
 - A) Berlinda
 - B) Kyolnda
 - C) Parijda
 - D) Neapolda
4. Qaysi uslubda qurilgan binolar balandligi bilan xususiyatlangan?
 - A) Roman uslubi
 - B) Zamonaviy uslub
 - C) Arab uslubi
 - D) Gotik uslub
5. Gotik uslubda barpo etilgan Ruan, Reyms, Shartr va Bibi Maryam ibodatxonalari qayerda joylashgan?
 - A) Italiyada
 - B) Germaniyada
 - C) Fransiyada
 - D) Angliyada
6. Qaysi uslub G'arbiy Yevropa me'morchilik san'atida X asrdan XII-XIII asrlargacha hukm surdi?
 - A) Arab uslubi
 - B) Zamonaviy uslub
 - C) Gotik uslub
 - D) Roman uslubi
7. Qaysi uslub G'arbiy Yevropa me'morchilik san'atida XII asr o'rtalaridan Shimoliy Fransiyada yuzaga keladi va XIII asr birinchi yarmida yuksak darajada rivojlanadi?
 - A) Arab uslubi
 - B) Gotik uslub
 - C) Roman uslubi
 - D) Zamonaviy uslub
8. Qaysi shaharda Avliyo Mark ibodatxonasi va Dojlar saroyi bunyod etilgan?
 - A) Parijda
 - B) Vizantiyada
 - C) Genuyada
 - D) Venetsiyada
9. Avliyo Mark ibodatxonasi va Dojlar saroyi qaysi uslubda bunyod etilgan?
 - A) Arab uslubi
 - B) Gotik uslub
 - C) Vizantiya uslubi
 - D) Roman uslubi

10. Ispaniyaning Sevilya shahrida masjid va Al-Qasar qasri, Granadadagi Al-Humro saroyi qaysi uslubda bunyod etilgan?
- A) Arab uslubi
 - B) Gotik uslub
 - C) Vizantiya uslubi
 - D) Roman uslubi
11. G`arbiy Yevropada Bibi Maryam qanday atalgan?
- A) Ona
 - B) Bibi Mariya
 - C) Beka
 - D) Madonna
12. 1304-1374 yillarda kim yashab ijod qilgan?
- A) Franchesko Petrarka
 - B) Kolyuchcho Salutati
 - C) Jovanni Bokkachcho
 - D) Aldo Manutsiya
13. 1313-1375 yillarda kim yashab ijod qilgan?
- A) Kolyuchcho Salutati
 - B) Aldo Manutsiya
 - C) Jovanni Bokkachcho
 - D) Franchesko Petrarka
14. 1331-1406 yillarda kim yashab ijod qilgan?
- A) Aldo Manutsiya
 - B) Kolyuchcho Salutati
 - C) Jovanni bokkachcho
 - D) Franchesko Petrarka
15. Ilk uyg`onish va gumanizmning Yevropadagi dastlabki vakili qaysi shoir bo`lgan?
- A) Aldo Manutsiya
 - B) Kolyuchcho Salutati
 - C) Jovanni bokkachcho
 - D) Franchesko Petrarka
16. «Qo`shiqlar kitobi» va «She`riy maktublar» asarlarining muallifi kim?
- A) Aldo Manutsiya
 - B) Kolyuchcho Salutati
 - C) Jovanni bokkachcho
 - D) Franchesko Petrarka
17. «Dekameron» asarining muallifi kim?
- A) Kolyuchcho Salutati
 - B) Aldo Manutsiya
 - C) Jovanni Bokkachcho
 - D) Franchesko Petrarka
18. Kim yuksak g`oyali, o`qimishli kishini tarbiyalashda, ijtimoiy fanlar: filologiya, ritorika, tarix, pedagogika, etikaning o`ta muhim ekanligini ta`kidlagan?
- A) Franchesko Petrarka
 - B) Jovanni bokkachcho
 - C) Kolyuchcho Salutati
 - D) Aldo Manutsiya
19. Kolyuchcho Salutati qaysi shaharda yashab, yuqori davlat lavozimida ishlagan?
- A) Florentsiyada
 - B) Rimda
 - C) Milanda
 - D) Neapolda

Testlar

1. Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarining o`shishi nechanchi asrda boshlagan?
 - A) X asrda
 - B) XIV asrda
 - C) XI asrda
 - D) XII asrda
2. Reyn daryosi bo`ylaridagi qaysi shaharlar yirik hunarmandchilik va savdo markazlariga aylanadi?
 - A) Ulm, Nyurenberg, Augsburg
 - B) Ulm, Nyurnberg, Frankfurt
 - C) Kyoln, Vorms
 - D) Frankfurt, Ulm
3. 1138-1254 yillarda Germaniyada qaysi sulola hukmronlik qilgan?
 - A) Frankoniya
 - B) Shtaufenlar
 - C) Gabsburglar
 - D) Saksoniya
4. 1273-1347 yillarda Germaniyada qaysi sulola hukmronlik qilgan?
 - A) Frankoniya
 - B) Shtaufenlar
 - C) Gabsburglar
 - D) Saksoniya
5. 1347-1437 yillarda Germaniyada qaysi sulola hukmronlik qilgan?
 - A) Shtaufenlar
 - B) Saksoniya
 - C) Gabsburglar
 - D) Frankoniya
6. 1437-1806 yillarda Germaniyada qaysi sulola hukmronlik qilgan?
 - A) Saksoniya
 - B) Shtaufenlar
 - C) Gabsburglar
 - D) Frankoniya
7. 1152-1190 yillarda Germaniya imperatori kim bo`lgan?
 - A) Lyudovik Nemis
 - B) Lotar
 - C) Genrix V
 - D) Fridrix I Barbarossa
8. Dastlab Fridrix I Barbarossa o`z istilolarini salib yurishlari tufayli boyib ketgan qayerning shaharlariga qaratadi?
 - A) Angliya
 - B) Italiya
 - C) Vizantiya
 - D) Fransiya
9. Fridrix I Barbarossaga Italiyaning qaysi shaharlari qarshi chiqadi?
 - A) Milan, Venetsiya
 - B) Rim, Milan, Venetsiya
 - C) Milan, Lombardiya
 - D) Rim, Milan
10. Qachon Ronkal vodiysida chaqirilgan seym Germaniya imperatori Fridrix I Barbarossaning

Italiyada hokimiyatini cheklanmagan deb e'tirof etadi?

- A) 1180 yilda
- B) 1158 yilda
- C) 1164 yilda
- D) 1148 yilda

11. Qaysi Germaniya imperatori Bolonyadan bilimdon huquqshunoslarni o'z xizmatiga taklif etgan?

- A) Fridrix I Barbarossa
- B) Genrix V
- C) Lyudovik Nemis
- D) Lotar

12. Qonun to'plamlarida qaysi Germaniya imperatori «Yerdagi jonli qonun» deb madh etiladi?

- A) Lyudovik Nemis
- B) Fridrix I Barbarossa
- C) Genrix V
- D) Lotar

13. Qachon Lombardiya shaharlari bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi?

- A) 1148 yilda
- B) 1180 yilda
- C) 1158 yilda
- D) 1162 yilda

14. Qaysi shahar boshchiligida Lombardiya shaharlari bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi?

- A) Lombardiya
- B) Venetsiya
- C) Rim
- D) Milan

15. Lombardiya shaharlari qo'zg'olonini bostirish davomida qaysi shahar aholisiga sakkiz kunda shaharni tashlab ketish sharti qo'yiladi?

- A) Venetsiya
- B) Rim
- C) Lombardiya
- D) Milan

16. Qachon Liga qo'shini Germaniya imperatori Fridrix I Barbarossaning ritsarlarini tor-mor etadi?

- A) 1158 yilda
- B) 1180 yilda
- C) 1162 yilda
- D) 1176 yilda

17. Qaysi jangda Liga qo'shini Germaniya imperatori Fridrix I Barbarossaning ritsarlarini tor-mor etadi?

- A) Milan jangida
- B) Saksoniya jangida
- C) Lenyano jangida
- D) Vena jangida

18. Qaysi Germaniya imperatori Shimoliy Italiya shaharlariga kommuna – erkinlik huquqini berishga majbur bo'ladi?

- A) Fridrix I Barbarossa
- B) Genrix V
- C) Lyudovik Nemis
- D) Lotar

19. Qaysi Germaniya imperatori o'g'li Genrix VI ni Sitsiliya malikasi Konstansiyaga uylantirish orqali Italiyaning janubini qo'lga kiritgan?

- A) Fridrix I Barbarossa

- B) Lyudovik Nemis
C) Lotar
D) Genrix V
20. Qaysi Rim papasi Fridrix II ni Germaniya imperatori deb e'lon qiladi?
A) Urban II
B) Innokentiy III
C) Lev III
D) Lev II
21. Qaysi Germaniya imperatori saroyida arab, vizantiyalik va yahudiy olimlarni to'plagan?
A) Lotar
B) Fridrix I Barbarossa
C) Fridrix II
D) Genrix V
22. Qaysi Germaniya imperatori arab va yunon tillarini bilgan, lotin tilida asarlar, italyan tilida she'rlar yozgan?
A) Lotar
B) Fridrix II
C) Genrix V
D) Fridrix I Barbarossa
23. Fridrix II ning qaysi shahardagi saroyi arab xalifalarining saroylarini eslatar edi?
A) Venetsiya
B) Milan
C) Lombardiya
D) Palermo
24. Fridrix II ning qaysi universitetning asoschisi hisoblanadi?
A) Palermo
B) Neapol
C) Oksford
D) Sorbonna
25. «Qushlar bilan ov qilish» asarini qaysi Germaniya imperatori yozgan?
A) Genrix V
B) Fridrix I Barbarossa
C) Fridrix II
D) Lotar
26. Qaysi Germaniya imperatoriga «Jahon hayrati» deb nom berishgan?
A) Lotar
B) Genrix V
C) Fridrix II
D) Fridrix I Barbarossa
27. 1227-1241 yillarda kim Rim papasi bo'lgan?
A) Grigoriy IX
B) Innokentiy III
C) Urban II
D) Lev II
28. Germaniyada nechanchi yillar umuman imperator saylanmaydi?
A) 1251-1276 yillar
B) 1257-1278 yillar
C) 1250-1275 yillar
D) 1254-1273 yillar
29. 1273 yilda knyazlar to'planib kimni Germaniya taxtiga o'tqazadilar?
A) Konrad Gabsburgni
B) Lotar Luksemburni

- C) Rudolf Gabsburgni
D) Rudolf Luksemburni
30. Germaniyasa qachon Gabsburglarning 369 yillik imperatorliklari boshlanadi?
A) 1458 yilda
B) 1437 yilda
C) 1480 yilda
D) 1462 yilda
31. Germaniyaning Ganza ittifoqi XIV asrning 70-yillarida Shimoliy dengizda savdodagi raqobatchisi qaysi qirollikka jiddiy zarba beradi?
A) Rossiyaga
B) Daniyaga
C) Shvetsiyaga
D) Angliyaga
32. Dunay sohilida joylashgan Germaniyaning 90 ta shaharlari qanday ittifoqqa birlashadi?
A) Ganza ittifoqiga
B) Shvabiya ittifoqiga
C) Ulm ittifoqiga
D) Venetsiya ittifoqiga
33. Germaniyaning qaysi shaharlari movut, surp, ip-gazlamalar ishlab chiqarishda, metall buyumlar, qurol-aslahalar yasashda mashhur edi?
A) Kyoln, Vorms, Strasburg
B) Berlin, Nyureberg, Ulm
C) Ganza, Shvabiya, Vorms
D) Ulm, Nyurenberg, Augsburg
34. Germaniyaning qaysi shaharlari Niderlandiya, Fransiya va Italiya bilan savdo-sotiq olib borishgan?
A) Ulm, Nyurenberg, Augsburg
B) Berlin, Nyureberg, Ulm
C) Kyoln, Vorms, Strasburg
D) Ganza, Shvabiya, Vorms

031-Rusda feodal tarqoqlikning boshlanishi (20)

Testlar

1. Kiev Rusining qaysi shahridagi syezdning muhim qarorida «har kim o`z yeriga egalik qilsin» deyilgan?
A) Novgorod
B) Suzdal
C) Kiev
D) Lyubech
2. Kim Lyubech shahrida knyazlarning birinchi syezdini chaqirgan?
A) Vladimir Monomax
B) Yuriy Dolgorukiy
C) Vsevolod Mstislavich
D) Mstislav
3. Lyubechdagi syezdda Vladimir Monomax Kievning qaysi knyazi bilan uchrashadi?
A) Mstislav bilan
B) Svyatopolk bilan
C) Vsevolod Mstislavich bilan
D) Igor bilan
4. Vladimir Monomax va Mstislav vafotidan so`ng Rusda necha mustaqil knyazlik bo`lgan?
A) 9 ta
B) 21 ta
C) 10 ta
D) 15 ta
5. Botuxon bosqini arafasida Rusda necha mustaqil knyazlik bo`lgan?
A) 10 ta
B) 50 ta
C) 59 ta
D) 15 ta
6. Kiyev bilan aloqasini uzgan dastlabki knyazlik qaysi?
A) Pskov
B) Novgorod
C) Moskva
D) Suzdal
7. Qachon Novgorod knyazligiga Kiev knyazining to`ng`ich o`g`li qo`yilgan?
A) XIII asrda
B) XII asrda
C) XI asrda
D) X asrda
8. Rusdagi qaysi knyazlik boyarlar respublikasiga aylana borgan?
A) Pskov
B) Kiyev
C) Moskva
D) Novgorod
9. Qachon novgorodliklar vechesi Monomaxning nabirasini knyazlik taxtidan chetlatib, zindonga tashlashga qaror qiladi?
A) 1136 yilda
B) 1162 yilda
C) 1180 yilda
D) 1137 yilda
10. Qachon Novgorod uzil-kesil respublikaga aylanadi?

- A) 1162 yilda
B) 1136 yilda
C) 1180 yilda
D) 1137 yilda
11. Mahalliy boyarlarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashi XII-XIII asrlarda qaysi knyazliklarda kuzatiladi?
A) Galich-Volin, Pskov, Moskva
B) Don, Kuchkovo, Rostov, Uglich
C) Galich-Volin, Kiev, Vladimir-Suzdal
D) Pskov, Yaroslavl, Rostov, Don
12. Vladimir Monomaxning o`g`li Yuriy Dolgorukiy XII asrda qaysi daryolar havzasidagi yerlarni boshqarar edi?
A) Volga va Kama
B) Volga va Oka
C) Dnepr va Kama
D) Ural va Volga
13. Kiev Rusi davlatida XI-XIII asrlarda qaysi shaharlarga asos solinadi?
A) Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir, Yurev
B) Pskov, Minsk, Rostov, Piter
C) Volgograd, Ivanovo, Kiev, Minsk
D) Rostov, Kuchkovo, Moskva, Kiev, Don, Uglich
14. Moskva shahriga kim asos solgan?
A) Vladimir Monomax
B) Vladimir Mstislavich
C) Yuriy Dolgorukiy
D) Igor Vladimirovich
15. Qachon Moskva shahriga asos solinadi?
A) 1147 yilda
B) 1180 yilda
C) 1136 yilda
D) 1137 yilda
16. Qaysi qo`rg`on keyinchalik Moskva deb nomlanadi?
A) Semipalatinsk
B) Polosk
C) Lyubech
D) Kuchkovo
17. Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir knyazligini kimga qadar boshqaradilar?
A) Ivan Grozniy
B) Dmitriy Ivanovich
C) Boris Godunov
D) Roman Mstislavich
18. Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir knyazligini nechanchi yilgacha boshqaradilar?
A) 1480 yilgacha
B) 1547 yilgacha
C) 1537 yilgacha
D) 1447 yilgacha
19. Qaysi shaharda Yuriy Dolgorukiyga haykal o`rnatilgan?
A) Moskva
B) Uglich
C) Lyubech
D) Polsk
20. Qaysi shahar XIV asrdan Rus yerlarining birlashuviga asos bo`ldi?

- A) Uglich
- B) Moskva
- C) Polsk
- D) Lyubech

032-33-Rus yerlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi_Oltin O'rda hukmronligidan ozod bo'lish (28)

Testlar

1. Qachon mo`g`ul qo`shinlari Rus yerlariga bostirib kiradi?
A) 1223 yilda
B) 1280 yilda
C) 1247 yilda
D) 1236 yilda
2. Kim 1237-1242 yillarda Sharqiy Yevropada istilochilik urushlari olib borgan?
A) Botuxon
B) Chig`atoy
C) Jo`jixon
D) Ivan Grozniy
3. Kimning qo`shinlari avval Rus knyazliklarini, keyinchalik Polsha, qisman Serbiya va Bolgariyani istilo qilishadi?
A) Chig`atoy
B) Botuxon
C) Jo`jixon
D) Xulagu
4. Mo`g`ullar tomonidan qachon Kiev bosib olinadi?
A) 1240 yilda
B) 1236 yilda
C) 1223 yilda
D) 1247 yilda
5. Kim Oltin O`rda xonligini tuzadi?
A) Berkaxon
B) Jo`jixon
C) Botuxon
D) To`xtamish
6. Oltin O`rdaning dastlabki poytaxti qaysi shahar?
A) Astraxan
B) Saroy Berka
C) Moskva
D) Saroy Botu
7. Oltin O`rdaning keyingi poytaxti qaysi shahar?
A) Moskva
B) Saroy Berka
C) Saroy Botu
D) Astraxan
8. Kim «knyazlar oqsoqoli» deb tan olinib, Vladimir knyazligini boshqarishga yorliq oladi?
A) Yaroslav
B) Mixail Vsevolodovich
C) Ivan Grozniy
D) Aleksandr Yaroslavich
9. Nemis feodallari XIII asrning boshlarida Boltiqbo`yida yashovchi qaysi qabilalarga qarshi urush olib borgan?
A) Polyak, Shved va Chex qabilalariga qarshi
B) Est va Liv qabilalariga qarshi
C) Est va Chex qabilalariga qarshi
D) Shved va Chex qabilalariga qarshi

10. 1240 yilda Rus yerlariga qayerlik bosqinchilar bostirib kiradi?
A) Mo`g`ul va shvedlar
B) Arab va turklar
C) Turk va mo`g`ullar
D) Shved va nemislar
11. Novgorodning qaysi knyazi shvedlar ustidan g`alaba qozonadi?
A) Aleksandr Yaroslavich
B) Mixail Vsevolodovich
C) Yaroslav
D) Ivan Grozniy
12. 1240-yil 15-iyulda Novgorodning knyazi qayerda shvedlar ustidan g`alaba qozonadi?
A) Chud ko`lida
B) Tver yaqinidagi Marna daryosi bo`yida
C) Novgorod yaqinidagi Izborskda
D) Neva daryosi sohilida
13. Novgorodning qaysi knyazi nemislar ustidan g`alaba qozonadi?
A) Aleksandr Yaroslavich
B) Ivan Grozniy
C) Mixail Vsevolodovich
D) Yaroslav
14. «Muz ustidagi jang» qachon bo`lgan?
A) 1242 yil 5 aprelda
B) 1242 yil 5 martda
C) 1242 15 fevralda
D) 1242 yil 15 yanvarda
15. Novgorodning knyazi qayerda nemislar ustidan g`alaba qozonadi?
A) Neva daryosi sohilida
B) Muzlagan Chud ko`lida
C) Tver yaqinidagi Marna daryosi bo`yida
D) Novgorod yaqinidagi Izborskda
16. Moskvaning qaysi knyazi O`zbekxonga o`z sadoqatini ko`rsatishi Tver knyazining halokati bilan tugaydi?
A) Yuriy Danilovich
B) Yaroslav
C) Ivan Grozniy
D) Aleksandr Yaroslavich
17. Rus yerlaridan Oltin O`rda xoni yorlig`i bilan soliq yig`ish uchun kurash qaysi knyaz davrida uzil-kesil Moskva foydasiga hal bo`ladi?
A) Mixail
B) Ivan Kalita
C) Ivan Grozniy
D) Yaroslav
18. 1325-1340 yillarda kim Moskva knyazi bo`ladi?
A) Ivan Grozniy
B) Yaroslav
C) Mixail
D) Ivan Kalita
19. 1359-1389 yillarda kim Moskva knyazi bo`ladi?
A) Yaroslav
B) Dmitriy Ivanovich
C) Mixail
D) Ivan Kalita

20. 1378 yilda qaysi Moskva knyazi mo`g`ullarga qarshi kurashda dastlabki g`alabaga erishadi?
A) Yaroslav
B) Mixail
C) Dmitriy Ivanovich
D) Ivan Kalita
21. 1378 yilda Moskva knyazi qayerda mo`g`ullarga qarshi kurashda dastlabki g`alabaga erishadi?
A) Novgorod yaqinidagi Izborskda
B) Voje daryosi bo`yida
C) Muzlagan Chud ko`lida
D) Neva daryosi sohilida
22. Mo`g`ullar ustidan qozonilgan g`alaba sharafiga qaysi Moskva knyazi Donskoy faxriy nomini oladi?
A) Mixail
B) Ivan Kalita
C) Dmitriy Ivanovich
D) Yaroslav
23. Qachon Moskva knyazi Dmitriy Ivanovich Oltin O`rda tumanboshisi Mamay boshchiligidagi mo`g`ullar qo`shini ustidan g`alaba qozonadi?
A) 1347 yilda
B) 1340 yilda
C) 1336 yilda
D) 1380 yilda
24. Qayerda Moskva knyazi Dmitriy Ivanovich Oltin O`rda tumanboshisi Mamay boshchiligidagi mo`g`ullar qo`shini ustidan g`alaba qozonadi?
A) Novgorod yaqinidagi Izborskda
B) Don daryosi sohilidagi Kulikovo maydonida
C) Voje daryosi bo`yida
D) Neva daryosi sohilida
25. Qachon To`xtamishxon yana Moskva ustidan o`z hukmini o`rnatib, Rus knyazlarini boj-yasoq to`lashga majbur etadi?
A) 1336 yilda
B) 1382 yilda
C) 1380 yilda
D) 1347 yilda
26. Amir Temur Oltin O`rda ustidan nechanchi yilda Qunduzcha jangida g`alaba qozonadi?
A) 1382 yilda
B) 1391 yilda
C) 1336 yilda
D) 1380 yilda
27. Amir Temur Oltin O`rda ustidan nechanchi yilda Tarak daryosi bo`yidagi jangda g`alaba qozonadi?
A) 1391 yilda
B) 1336 yilda
C) 1395 yilda
D) 1380 yilda
28. Qachon Moskva knyazi Ivan III Oltin O`rdaga boj-yasoq to`lashdan bosh tortadi?
A) 1480 yilda
B) 1436 yilda
C) 1482 yilda
D) 1491 yilda

034-Saljuqiylar va Usmonli turklar davlati (38)

Testlar

1. O`rta Osiyoda Saljuqbek asos solgan sulola boshchiligidagi o`g`uz qabilalarining Old Osiyoga yirik harbiy yurishlari nechanchi asrda kuchayadi?
 - A) XI asrda
 - B) XII asrda
 - C) XIII asrda
 - D) X asrda
2. Vizantiyaning yollanma qo`shini qachon Saljuqiylar sultoni Alp Arslon lashkari tomonidan tor-mor etiladi?
 - A) 1036 yilda
 - B) 1071 yilda
 - C) 1091 yilda
 - D) 1080 yilda
3. Vizantiyaning yollanma qo`shini qaysi jangda Saljuqiylar sultoni Alp Arslon lashkari tomonidan tor-mor etiladi?
 - A) Nikopol jangi
 - B) Eskishahar jangi
 - C) Parvon jangi
 - D) Mansikert jangi
4. Qaysi imperator boshchiligidagi Vizantiyaning yollanma qo`shini Saljuqiylar sultoni Alp Arslon lashkari tomonidan tor-mor etiladi?
 - A) To`g`rulbek
 - B) O`rxon
 - C) Boyazid
 - D) Roman IV Diogen
5. Saljuqiylar davlati qachon tashkil topgan?
 - A) 1091 yilda
 - B) 1071 yilda
 - C) 1036 yilda
 - D) 1038 yilda
6. Saljuqiylar davlatiga kim asos solgan?
 - A) Sulton Sanjar
 - B) To`g`rulbek
 - C) Saljuq
 - D) Alp Arslon
7. Saljuqiylar davlati nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?
 - A) 1238-1408 yillarda
 - B) 1038-1208 yillarda
 - C) 1138-1208 yillarda
 - D) 1038-1308 yillarda
8. Saljuqiylar davrida Kichik Osiyodagi qaysi shaharlar eng yirik shaharlar qatorida bo`lgan?
 - A) Anqara, Bag`dod, Samarqand
 - B) Ko`nyo, Anqara, Damashq
 - C) Niso, Obivard, Suvas, Qaysariya
 - D) Ko`nyo, Suvas, Qaysariya
9. Saljuqiylar davlatida sulton devoni hujjatlari va yozishmalar qaysi tilda olib borilgan?
 - A) arab tili
 - B) turk tili
 - C) yunon tili

- D) fors tili
10. 1207-1273 yillarda kim yashab ijod etgan?
- A) Qozizoda Rumiyy
B) Jaloliddin Rumiyy
C) Firdavsiy
D) Xisrav Dehlaviy
11. Kichik Osiyoda turk xalqining shakllanish jarayoni qachon kuchayadi?
- A) XII asrning 20-30-yillarida
B) XI asrning 20-30-yillarida
C) XIII asrning 20-30-yillarida
D) X asrning 20-30-yillarida
12. Qachon Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlati butunlay parchalanib ketadi?
- A) XIII asrning boshlarida
B) XIV asr boshlarida
C) XII asrning boshlarida
D) X asrning 20-30-yillarida
13. Qaysi beylik Kichik Osiyoning shimoliy-g`arbiy hududida, Eskishaharga yaqin joyda edi?
- A) O`rxon beyligi
B) Qrim beyligi
C) Onado`li beyligi
D) Usmon beyligi
14. Usmonlilar davlatining asoschisi kim?
- A) O`rxon
B) Boyazid
C) Usmon I
D) Mehmet
15. Usmonlilar davlatiga qachon asos solingan?
- A) 1299 yilda
B) 1291 yilda
C) 1271 yilda
D) 1236 yilda
16. Usmonlilar davlatida kimning davrida Bursa shahri va uning atroflari bosib olinadi?
- A) Usmon I
B) Boyazid
C) O`rxon
D) Mehmet
17. Usmonlilar davlatining qaysi hukmdori Vizantiya shaharlari Nikeya va Nikomediylarni olib, Qora dengiz sohiliga chiqadi?
- A) Boyazid
B) Usmon I
C) O`rxon
D) Mehmet
18. Usmonlilar davlatining qaysi hukmdori boshqaruvi davrida ilk bor vazir lavozimi ta`sis etiladi?
- A) Mehmet
B) Boyazid
C) Usmon I
D) O`rxon
19. Usmonlilar davlatining qaysi hukmdori boshqaruvi davrida tanga pul zarb qilinib, davlat yerlari ma`muriy birliklarga bo`linadi?
- A) Boyazid
B) O`rxon
C) Mehmet

- D) Usmon I
20. Usmonlilar davlatining qaysi hukmdori boshqaruvi davrida harbiy islohot o`tkazib, qo`shinni otlig va piyoda qismlarga («musallam») alohida harbiy birliklarga ajratadi?
- A) O`rxon
B) Mehmet
C) Boyazid
D) Usmon I
21. Usmonlilar davlati nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?
- A) 1238-1808 yillarda
B) 1299-1922 yillarda
C) 1038-1922 yillarda
D) 1238-1908 yillarda
22. Usmoniylar istilosiga qadar Bolqon yarimorolida qanday yirik davlatlar mavjud edi?
- A) Gretsiya, Serbiya, Bosniya, Arab xalifaligi
B) Vizantiya, Serbiya, Bolgariya, Bosniya
C) Arab xalifaligi, Serbiya, Bolgariya
D) Suriya, Yaman, Bolgariya, Vizantiya
23. Usmonli turklarning Bolqondagi dastlabki bosqinlari nechanchi yillarda bo`lgan?
- A) 1357-1358 yillarda
B) 1299-1322 yillarda
C) 1238-1248 yillarda
D) 1353-1357 yillarda
24. 1389-1402 yillarda kim Usmonlilar davlatida sulton bo`lgan?
- A) Boyazid
B) O`rxon
C) Usmon I
D) Mehmet
25. 1402-yil yozida qaysi jangda Amir Temur qo`shinlari Yildirim Boyazid lashkarini yengadi?
- A) Mansikert jangida
B) Kosovo jangida
C) Nikopol jangida
D) Anqara jangida
26. 1451-1481 yillarda kim Usmonlilar davlatida sulton bo`lgan?
- A) Boyazid
B) O`rxon
C) Usmon I
D) Mehmet II
27. 1453-yilning 29-mayida qaysi voqea bo`lgan?
- A) Konstantinopol turklar tomonidan bosib olinadi
B) Amir Temur qo`shinlari Yildirim Boyazid lashkarini yengadi
C) Usmoniylar davlati inqirozga uchraydi
D) Usmoniylar venger, valax, bolgarlardan tuzilgan 60 minglik qo`shinini yengadi
28. Usmonlilar davlatining qaysi hukmdori davrida Konstantinopol turklar tomonidan bosib olinadi?
- A) Boyazid
B) O`rxon
C) Usmon I
D) Mehmet II
29. Usmonlilar qaysi shaharni Istanbul deb qayta nomlashadi?
- A) Bursani
B) Quddusni
C) Konstantinopolni

- D) Izmirni
30. Yanicharlar qaysi janglardagi g`alabalarga katta hissa qo`shganlar?
- A) Varna jangi, Kosovo jangi, Konstantinopol jangi
B) Mansikert jangi, Anqara jangi, Varna jangi, Kosovo jangi
C) Anqara jangi, Nikopol jangi, Kosovo jangi
D) Mansikert jangi, Anqara jangi, Nikopol jangi, Kosovo jangi
31. XV asrning ikkinchi yarmida qayerlar turklar vassalligini tan oladilar?
- A) Moldaviya, Valaxiya
B) Moldaviya, O`rta Osiyo
C) Gruziya, Ozarbayjon
D) Moldaviya, Gruziya, Armaniston
32. Qaysi mamlakatda shoira Mehri xotun va shoir Mulla Mahmud kabi qator iqtidorli shoirlar etishib chiqqan?
- A) Moldaviya
B) Gruziya
C) Turkiya
D) Armaniston
33. Quyidagilardan 1490-1588 yillarda yashab ijod etgan shaxsni aniqlang?
- A) Xo`ja Sinon
B) Mulla Mahmud
C) Piri Rais
D) Mehri xotun
34. Kim o`z faoliyati davrida 300 dan ortiq inshootlar, masjidlar, saroylar, favvoralar, hammom va ko`priklar qurilishiga boshchilik qilgan?
- A) Piri Rais
B) Xo`ja Sinon
C) Mulla Mahmud
D) Mehri xotun
35. «Bahriya» atlasining muallifi kim?
- A) Piri Rais
B) Mulla Mahmud
C) Xo`ja Sinon
D) Mehri xotun
36. «Bahriya» atlasida qaysi dengizlar keltirilgan?
- A) Tinch okeani, Hind okeani, O`rtayer dengizi, Qora dengiz,
B) O`rtayer dengizi, Qora dengiz, Egey dengizi
C) Qizil dengiz, O`rtayer dengizi, Qora dengiz, Arab dengizi
D) O`rtayer dengizi, Qora dengiz, Kaspiy dengizi, Orol dengizi
37. «Jahonnoma» asarining muallifi kim?
- A) Xo`ja Sinon
B) Mehri xotun
C) Piri Rais
D) Xoja Xalifa
38. «Sayohatnoma» ko`p jildli asarining muallifi kim?
- A) Xoja Xalifa
B) Piri Rais
C) Evliya Chalabiy
D) Xo`ja Sinon

Testlar

1. Mo'g'ullarning ko'pchiligi nima bilan shug'ullangan?
A) Ovchilik
B) Dehqonchilik
C) Chorvachilik
D) Hunarmandchilik
2. XIII asrning boshlarida mo'g'ullar orasidagi o'zaro urushlarda kim g'olib chiqadi?
A) Chig'atoy
B) Temuchin
C) Subutoy
D) Botuxon
3. Quyidagilardan 1155-1227 yillarda yashagan humdorni aniqlang?
A) Temuchin
B) Chig'atoy
C) Botuxon
D) Subutoy
4. Qachon Temuchin mo'g'ullarning ulug' xoni deb e'lon qilinadi?
A) 1207 yilda
B) 1209 yilda
C) 1203 yilda
D) 1206 yilda
5. Qayerda bo'lib o'tgan qurultoyda Temuchin mo'g'ullarning ulug' xoni deb e'lon qilinadi?
A) Gobi cho'lida
B) Issiqko'l bo'yida
C) Volga daryosi bo'yida
D) Onon daryosi bo'yida
6. Qachon Mo'g'ullar davlati tashkil topadi?
A) 1206 yilda
B) 1207 yilda
C) 1203 yilda
D) 1209 yilda
7. Mamlakatni markazlashtirish maqsadida Chingizxon qaysi shaharni poytaxtga aylantiradi?
A) Sig'noq
B) Ulanbator
C) Yangikent
D) Qoraqurum
8. Asosiy qo'shından tashqari Chingizxon nima deb yuritilgan maxsus gvardiya tashkil etgan?
A) Keshik
B) Juvong'or
C) Kanbul
D) Yanichar
9. Chingizxon qachon Shimoliy Xitoyga qarshi urush boshlaydi?
A) 1207 yilda
B) 1211 yilda
C) 1209 yilda
D) 1214 yilda
10. Chingizxon qachon Yettisuv va Sharqiy Turkistonga qarshi urush boshlaydi?
A) 1218 yilda
B) 1211 yilda

- C) 1209 yilda
D) 1214 yilda
11. 1219-1221 yillarda Chingizxon qaysi davlatga qarshi urush olib borgan?
A) Xorazmshohlar davlatiga
B) Arab xalifaligiga
C) Yettisuvga
D) Shimoliy Xitoyga
12. Mo`g`ullar qayerda qipchoqlarning ittifoqchisi sifatida ularga yordamga kelgan ruslar qo`shinini mag`lub etadi?
A) Kalka daryosi bo`yida
B) Ural daryosi bo`yida
C) Issiqko`l bo`yida
D) Onon daryosi bo`yida
13. Qachon Chingizxon zabt etilgan hududlarni o`z o`g`illari: Jo`ji, Chig`atoy, O`qtoy va Tuluga taqsimlab beradi?
A) 1219 yilda
B) 1224 yilda
C) 1228 yilda
D) 1227 yilda
14. Chingizxon kimni taxt vorisi etib tayinlaydi?
A) Chig`atoyni
B) O`qtoyni
C) Tuluni
D) Jo`jini

Testlar

1. Mo`g`ullarning 1235 yilgi qurultoyida O`qtoy qoon (xon) Chingizxonning Rus va Shimoliy Kavkaz yerlarini bosib olish haqidagi vasiyatini eslatib, to`planadigan qo`shinga kim yetakchilik qilishini e`lon qiladi?
 - A) Tulu
 - B) Jo`ji
 - C) Chig`atoy
 - D) Botuxon
2. Botuxonga yordamga Chingizxonning sarkardalaridan kim beriladi?
 - A) Berkaxon
 - B) Suketi Cho`rbiy
 - C) Oloqno`yon
 - D) Subutoy
3. Botu va Subutoylar 1237 yilning kuzida rus yerlariga hujum qilib, dastlab qayerni bosib olishadi?
 - A) Vladimiri
 - B) Ryazanni
 - C) Tyumeni
 - D) Moskvani
4. Botu va Subutoylar tomonidan 1238-1240 yillarda bosib olingan Rus knyazliklarini ketma-ketlikda joylashtiring?
 - A) Kiev, Galich, Volin, Novgord, Pskov
 - B) Vladimir, Suzdal, Kiev, Galich, Volin
 - C) Suzdal, Kiev, Galich, Volin, Vladimir, Pskov
 - D) Vladimir, Suzdal, Volin, Kiev, Ryazan
5. Mo`g`ullar tomonidan 1241-1242 yillarda qaysi davlatlarning bir qismi egallanadi?
 - A) Gruziya, Ozarbayjon, Chexiya
 - B) Chexiya, Vengriya, Polsha
 - C) Bolgariya, Vengriya, Ruminiya
 - D) Moldaviya, Chexiya, Bolgariya
6. Nechanchi yili O`qtoyning vafot etishi munosabati bilan Botuxon Volgabo`yi dashtlariga qaytadi?
 - A) 1243 yilda
 - B) 1242 yilda
 - C) 1247 yilda
 - D) 1249 yilda
7. Botuxon istilo qilgan Volgabo`yi, Shimoliy Qora dengiz sohillari, Shimoliy Kavkaz, Moldaviya hududlarida rus yozma manbalarida qanday nom olgan Jo`ji ulusi shakllanadi?
 - A) Jo`ji ulusi
 - B) Dashti Qipchoq
 - C) Oq O`rda
 - D) Oltin O`rda
8. Botuxon kimning o`g`li bo`lgan?
 - A) O`qtoyning
 - B) Tuluning
 - C) Chig`atoyning
 - D) Jo`jining
9. 1236-1255 yillarda Oltin O`rda xoni kim bo`lgan?
 - A) Tulu
 - B) To`xtamish

- C) Botuxon
D) Jo`ji
10. Qachon Oltin O`rda xonligi tashkil topgan?
A) XIII asrning 30-yillarida
B) XII asrning 30-yillari boshida
C) XIII asrning 40-yillari boshida
D) XIV asrning 30-yillarida
11. 1224 yilda Jo`ji ulusiga qayerlar kirar edi?
A) Volga Bulg`oriyasi, G`arbiy Sibir, Dashti Qipchoq va Qrim
B) Volga Bulg`oriyasi, G`arbiy Sibir, Dashti Qipchoq va Qrim
C) Shimoliy Xorazm va Shimoliy Kavkaz
D) Volga Bulg`oriyasi, G`arbiy Sibir va Shimoliy Xorazm
12. Oltin O`rdada ijro hokimiyati boshlig`i kim bo`lgan?
A) Bosh vazir
B) Beklarbegi
C) Bosqoq
D) Dorug`a
13. Oltin O`rdada devon ishlarini kim boshqargan?
A) Dorug`a
B) Beklarbegi
C) Bosqoq
D) Vazir
14. Oltin O`rdada mahalliy boshqaruv kimlarning qo`lida bo`lgan?
A) Bosh vazir va dorug`a
B) Bosqoq va vazir
C) Dorug`a va bosqoq
D) Beklarbegi va bosqoq
15. Oltin O`rda XIV asrdan necha katta viloyatga bo`linib, ular ulus nomini olgan?
A) 4 ta
B) 6 ta
C) 3 ta
D) 5 ta
16. Oltin O`rda davlatida qo`shinni kim boshqargan?
A) Beklarbegi
B) Dorug`a
C) Bosqoq
D) Vazir
17. Oltin O`rdada qaysi beklarbegilar hatto xonlarni ham o`z xohishlariga qarab tayinlaganlar?
A) Subutoy, Mamay, Edigey
B) Berka, Subutoy, Mamay
C) No`g`ay, Mamay, Edigey
D) Mamay, To`xtamish, Berka
18. Mo`g`ullar qachon Rusning janubiy knyazliklarida aholini ro`yxatga olish tadbirini o`tkazadi?
A) 1247 yilda
B) 1248 yilda
C) 1249 yilda
D) 1242 yilda
19. Mo`g`ullar qachon Rusning shimoliy knyazliklarida aholini ro`yxatga olish tadbirini o`tkazadi?
A) 1257 yilda
B) 1249 yilda
C) 1248 yilda
D) 1242 yilda

20. Oltin O`rdada aholini ro`yxatga olinishining yakunida mamlakat aholisi nima deb nomlangan katta to`lovga tortiladi?
- A) Qopchur
 - B) Chiqim
 - C) Talab
 - D) Shulen
21. Oltin O`rdada aholidan shoshilinch yig`iladigan soliq qanday atalgan?
- A) Shulen
 - B) Talab
 - C) Chiqim
 - D) Qopchur
22. Oltin o`rdada soliq va bojlar to`lanishini kimlar nazorat etishgan?
- A) Bosqoq
 - B) Dorug`a
 - C) Vazir
 - D) Beklarbegi
23. Mo`g`ullar imperiyasi bo`ylab tashkil etilgan yomlar – yo`l bekatlari qaysi davlatdan qabul qilingan?
- A) Kiev Rusidan
 - B) Xitoydan
 - C) Erondan
 - D) Xorazmshohlardan
24. Mo`g`ullar bilan tinchlik siyosatini Vladimir boshlab kim davom ettirgan?
- A) Vladimir Monomax
 - B) Ivan Grozniy
 - C) Dimitriy Ivanovich
 - D) Aleksandr Yaroslavich
25. Eronda mo`g`ullar davlatini kim tuzgan?
- A) Xuloku
 - B) Berkaxon
 - C) Chig`atoy
 - D) Botuxon
26. Xuloku va uning vorislari Oltin O`rda bilan qayerga egalik qilish masalasida raqobatlasha boshlaydi?
- A) Turkiyaga
 - B) Kavkaz ortiga
 - C) Misrga
 - D) Rus yerlariga
27. Qachon Botuxonning ukasi Berkaxon vafot etadi?
- A) 1257 yilda
 - B) 1249 yilda
 - C) 1248 yilda
 - D) 1266 yilda
28. Xuloku ulusiga qarshi kurashda Oltin O`rda qayerning sultoni bilan ittifoq tuzadi?
- A) Turkiya
 - B) Misr
 - C) Arab xalifaligi
 - D) Vizantiya
29. Qachon Oltin O`rda davlati o`z qudratining cho`qqisiga erishadi?
- A) XII 30-yillari boshida
 - B) XIII asrning 40-yillari boshida
 - C) XIV asrning birinchi yarmida

- D) XIII asrning 30-yillarida
30. Oltin O`rda davlati o`z qudratining cho`qqisiga erishishi kimlarning faoliyati bilan bog`liq?
- A) Botuxon va Berkaxon
B) O`zbekxon va Jonibek
C) Botuxon va Jonibek
D) To`xtamish va Botuxon
31. 1312-1342 yillarda Oltin O`rda xoni kim bo`lgan?
- A) Botuxon
B) Jonibek
C) O`zbekxon
D) To`xtamish
32. 1342-1357 yillarda Oltin O`rda xoni kim bo`lgan?
- A) O`zbekxon
B) Jonibek
C) To`xtamish
D) Botuxon
33. 1314 yilda Oltin O`rdaning qaysi xoni islomni davlat dini deb e`lon qiladi?
- A) O`zbekxon
B) Botuxon
C) Jonibek
D) To`xtamish
34. Oltin O`rdada kimning davri shaharsozlikning yuksalishi bilan xususiyatlanadi?
- A) To`xtamish
B) Jonibek
C) Botuxon
D) O`zbekxon
35. Oltin O`rda davrida Rossiyada 100 tadan ortiq shaharlar vujudga kelgan bo`lib, ularning qaysilari hozir ham mavjud?
- A) Astraxan, Saroy Berka, Saroychik, Saroy Botu
B) Nijegorod, Samara, Tula, Tyumen
C) Samara, Moskva, Azov, Astraxan
D) Tula, Tyumen, Azov, Astraxan
